

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14740389>

**ABDULHAMID CHO‘LPONNING “OYDIN KECHALARDA”
HIKOYASINING 1922-1925-YILLARDA NASHR QILINGAN
NASHRLARDAGI FARQLAR TAHLILI HAQIDA**

Sayraxmedova Ziyoda Abduxakim qizi

Renessans ta’lim universiteti

Filologiya va tarix fakulteti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari

va huquq ta’limi 5-kurs 501-guruh talabasi

Jurakulov Jamol Kamolovich

Renessans ta’lim universiteti

Ilmiy rahbar; Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası dotsenti

***Annotatsiya:** Maqolada Abdulhamid Cho‘lponning “Oydin kechalarda” hikoyasining 1922-1925-yillardagi nashri - “Inqilob” jurnali va “Go‘zal yozg‘ichlar” majmuasida chop etilgan matnlarni variantlari qiyosiy tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** matn, tahrir, ilk nashr, muharrir, islohot, imlo, o‘zlashma.*

Abdulhamid Cho‘lponning bugungi kundagi nasriy asarlarining qayta nashrlarini amalga oshirishda ilmiy-tanqidiy matnlarni tayyorlash dolzarb masalalardan bir hisoblanadi. Cho‘lpon asarlarini qayta nashrlarini amalga oshirishda asosiy muammolardan biri ularning tili va imlosi bilan bog‘liq, bo‘lib bugungi kundagi abdiy so‘zlar bilan ifodalanishida. Muallif qo‘lyozmalarni saqlanib qolmagani uchun qayta nashrlar faqat ilk nashrlar – shoir hayotlik vaqtida chop etilgan kitoblar va vaqtli matbuotda e‘lon qilingan matnlar asosidagina amalga oshiriladi. Qaysi biridagilar esa hali eski va yangi qoidalarni chalkashtirib yuradi; muharrirlarning qay birlari

yangiliklarni ma'qullab qo'llayotgan bo'lsa, qay biri ularni hamon to'la qabul qilmagan – bu masalada o'z qarashlaridan voz kechmagan, shularga tayanib ish yuritadi [1.B.75]. “Oydin kechalarda” hikoyasining ikkita nashrini qiyoslaganda yaqqol ko'rish mumkin. Hikoya ilk bor “Inqilob” jurnalining 1922-yil 7–8 qo'shma sonida e'lon qilingan. Shartli deyishimiz sababi shuki, jurnal matniga ham muharrirning tegingan bo'lishi ehtimolini istisno qilib bo'lmaydi. Hikoya 1925-yilda Elbek tomonidan tartib berilib, “Go'zal yozg'ichlar” majmuasiga kiritilgan. Matnni qiyoslansa, orada ko'plab farqlar borligi ko'riladi. XX asrning 20-yillari imlo va yozuv islohotlari jarayonida singarmonizm masalasi juda dolzarb turgan masalala bo'lgan. Jumladan, u “ko'p kishilarni cho'chitkan, ba'zi bir kimsalarning kulgi va so'kish to'rvalari yorilishiga sabab bo'lg'an” singarmonizmni “imlomizning butinlig'in saqlash uchun yelim va tilimizning ko'rkini oshirish uchun bir bezakdir” deb baholaydi. Shuning uchun ta'kidlaydiki, “qalinliq va ingichkalik ohangi bizning tilimizning jonidir, yiqilmas qo'rg'onidir... Bas, bizning demakchi bo'lg'onimiz o'zbek tilining sufati, ya'ni uning bezagi – singarmo'nizm masalasi naq ana shu adabiy, jonli tilimiz masalasidir. Bunga qarshi bo'lg'onlar shubhasiz, shu tilning grajdanlik huquqig'a zarba bergusidurlar” [2].

Xususan, u lab ohangi masalasida Fitrat va Qayum Ramazonlarga qo'shilmaydi. Ular bu masalada, bir tomondan, umuman turkiy tillar nuqtai nazaridan fikr yuritsalar, ikkinchi tomondan, ko'proq mumtoz asarlar tilini asos qilib oladilar. Shunga ko'ra, “tub so'zlarning birinchi bo'g'inida o'tru (ya'ni, o',u) bo'lsa, ikkinchi bo'g'inida ham o'tru berish kerak” [3. B.43] degan qoidani ilgari suradilar. Ilmiy yoqdan ancha bo'sh bo'lg'aniday, mantiq yog'idan butunlay kelishmagan narsadir. Lab ohangi bo'lsa, yo yuz pirasant (qirg'izdag'ilar kibi) saqlanmog'i, yo bo'lmasa butunlay tashlanmog'i lozimdir” [2]. Ko'rinadiki, Elbek “butunlay tashlash” kerak deganida jonli o'zbek tilining xususiyatlaridan kelib chiqadi, uning o'sha davrdagi boshqa tillardan, xususan, qirg'iz tilidan farqlanishini e'tiborga oladi: “O'zbek tilida o'tru cho'zg'isining birinchi hijodan so'ng tushib qolishi to'g'risida hozirg'i mahalliy shevalar ochiq toniq bo'la oladilar”

Qiyoslanayotgan matnlarda yana o‘chub –o‘chib, ko‘mul – ko‘mil, chopishub – chopishib, hurushib – hurishib, yugurishub – yugirishib, uyqusi – uyqisi, xotun – xotin, bo‘shashub – bo‘shashib, turub –turib, kelub – kelib, uzulub – uzilib singari yuzlab juftliklarni keltirish mumkin. Bu bahsda muxolif tomon baland keldi: Elbekning yuqoridagi fikrlari inobatga olinmay, 1929 yilda chaqirilgan imlo qurultoyi lab ohangi qoidasi ba’zi bir istisnolar bilan tilda ikkinchi bo‘g‘ingacha saqlansin, degan qaror qabul qildi [4. B. 95]. XIII–XIV asrlarga oid bir qator yodgorliklarda kishilik olmoshining I shaxs birligi va ko‘pligiga qaratqich kelishigi qo‘shimchasi -im shaklida ham qo‘shilgan, ya’ni odatdagi mening, bizning shakli o‘rnida menim, bizim shakli qo‘llangan: Menim, bizim shakllari qadimdan o‘g‘uz guruhidagi turkiy tillar uchun xos bo‘lib, hozir ozarbayjon, turk, gagauz, qrim tatarlari, no‘g‘ay kabi tillarda qo‘llanadi [5. B. 84, 142].

Ilk nashr matnida -im qaratqich kelishigini olgan “men” kishilik olmoshi, ya’ni menim so‘zi ikki marta qo‘llangani holda, “mening” olmoshi umuman ishlatilmagan. “Onajon, men unga xafa bo‘lmayman. Menim yosh umrim, guldek yoshlig‘im kechalari sarg‘ayib o‘tmasa edi!.. – dedi” [6. B. 318]. Tahrirda esa ularning ikkalasi “mening” olmoshiga almashtirilgan. Cho‘lponning ilk ijodida ham bu shakl ancha faol ishlatilgan. Bizningcha, bu o‘rinda muharrirni yoqlash, o‘zbek adabiy tili normalarini shakllantirish harakati boshlangan sharoitda buni to‘g‘ri deb qabul qilish lozim. Mo‘jazzgina hikoyada o‘nlab so‘zlar almashtirilgan bo‘lib, ular quyida jadvalda keltirildi:

“Go‘zal yozg‘ichlar”da	“Inqilob” jurnalida
supa(cha)	so‘ri(cha)
sira	Hech
qayg‘i	G‘am
barcha	hamma
yurak	Qalb
el yotarg‘acha	ikki xuftong‘acha
qiziq	g‘alati
boyaqish	bechora

eshik	daricha
so‘l	Chab
ancha	xiyla
mucha	A‘zo
chechak	Gul
og‘u	Zahar
sezgi	His

Tahririy o‘zgarish “til sofligi” nuqtai nazaridan sodir bo‘lgan emas, chunki “so‘ri(cha)” ham, “supa(cha)” ham aslida arabcha. “Oppoq oydin, oy kampir yotqan so‘richaning qoq o‘rtasidan unda-munda, bitta-yarimta uchragan oq bulutlarni yorub shoshub o‘tub borar edi” [6. B. 315].

Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, Elbek kichkinagina hikoyadagi ko‘p so‘zlarning o‘zbekcha variantiga almashtirganiga guvoh bo‘ldik. U holda etimologik jihatdan arabcha bo‘lgan “so‘ri(cha)” so‘zini arabcha “supa(cha)” so‘ziga almashtirganining sababi nimada? Nazarimizda ilk nashrdagi so‘richa so‘zi Elbek uchun bir guruhga xos kam qo‘llanadigan so‘z bo‘lib tuyulgan bo‘lishi ham mumkin.

Cho‘lpon tasvirlayotgan hovli egalari o‘ziga to‘q oila. U davrda so‘ri har kimning ham hovlisida bo‘lavermagan, chunki so‘rini ustaga yasatish kerak, unga ketadigan ashyolar ham mablag‘ talab qiladi. Supa esa tuproqdan yasalgani uchun, uni har kim ham qo‘l ostidagi ashyolardan qurib olishi mumkin, faqat mehnat talab qilinadi. “So‘richa” o‘rniga “supacha”ni qo‘llashini tilning soflashtirish harakati deb o‘ylasak, har ikkalasi so‘z ham etimologik jihat arabcha so‘z. So‘zning o‘zgartirilgani asossizgina emas, balki mazmunga ham putur yetkazgan ekan. “Ul pilta savat, ko‘rpa qavuq ipdan tortub bu yil pilladan chiqaturg‘an ipakkacha – “dunyoning barcha g‘amini” o‘ylab oldi” [6. B. 315]. “Dunyoning barcha g‘amini” jumlasidagi g‘am so‘zi tahrirda “qayg‘i” so‘zi bilan almashtirilgan. “Qayg‘i” so‘zi ko‘zda tutilayotgan ma‘noni minimal darajada berishi mumkin, biroq bu so‘z ko‘proq g‘am-alam, ruhiy azob ma‘nolarini anglatadi. Matnda “g‘am” so‘zi “tashvish” ma‘nosida qo‘llangan. Bu so‘zlar bitta sinonimik qatorga mansub bo‘lgani holda, ularni mutlaq sinonim sifatida

qabul qilib bo‘lmaydi. Personaj tilidan aytilgan “Yo‘q... Ajina qizi, pari qizi mundog‘ yig‘lamos emish. Yig‘lasa juda g‘alati bo‘lur emish” [6. B. 316] jumlasidagi “g‘alati” so‘zi o‘z o‘rnida, ifoda maqsadiga muvofiq qo‘llangan. Sababi, matnda bu bilan pari va ajinalarning yig‘lashi mantiqan holatga xilof degan ma‘no ifodalangan. Til sofligi masalasi qanchalik muhim bo‘lmasin, tahrirda har bir konkret holatda so‘zning matn butunligidagi o‘rnini e‘tiborda tutgan holda eng ma‘qul yo‘lni tanlash to‘g‘ri bo‘ladi.

Ilk nashrda: “Kelinning qizarg‘an, charchag‘an, og‘ir qayg‘ig‘a tilmoch bo‘lub turg‘an ko‘zlariga tikilib qarab turg‘andan so‘ng onalar muhabbati bilan ko‘zidan o‘pdi” deyiladi” [6. B. 318]. Ya‘ni kampir ayni damda keliniga onalarcha muhabbat bilan qaragani, onalardek dardini anglagani ifodalanmoqda. Elbek “muhabbat” so‘zi o‘rniga “sevgi” so‘zini qo‘llanganki, bu so‘z, odatda, ko‘proq qarama-qarshi jins vakillari o‘rtasidagi his-tuyg‘uni anglatadi.

“Oydin kechalarda” hikoyasining “Inqilob” va “Go‘zal yozg‘ichlar”dagi matnlar orasidagi farqlarga asoslangan holda yana ko‘p gaplarni o‘rtaga tashlash mumkin, buning uchun misollar yetarli. Tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirga qadar Cho‘lpon nasriy asarlari qayta nashrlarida bosh mezon ilk nashrga moslik bo‘lib kelgani sir emas. Endilikda shuning o‘zi yetarli bo‘lmay qoldi. Cho‘lpon nasriy asarlarning mavjud matnlarini qiyosiy tadqiq etish, konkret asar yozilgan davr tili, imlo masalalari, yozuvchining individual til xususiyatlari kabi omillarni hisobga olgan holda ilmiy tanqidiy matnlarini tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Adabiyotlar:

1. Quronov D.H., Ne'matova D.S. Cho'lponning "Qor qo'ynida lola" hikoyasi matnidagi tahririy o'zgarishlar haqida // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar, 2022. – 1(61). – B. 75-83.
2. Elbek. Til imlosi ustida // Qizil O'zbekiston, 1929-yil 30-yanvar.
3. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 528 b.
4. Til imlo konferensiyasi materiallari. 1929-yil mayning 15-23-kunlarida Samarqandda butun O'zbekiston miqyosida to'plangan o'zbek til imlochilari va adiblari ko'nferensiyasining to'la hisobi. – Toshkent: O'zdatnashr, 1932. – 133 b.
5. Cho'lpon. Asarlar. To'rt jildlik. 2-jild. – Toshkent: Akademiya nashriyoti, 2016. – 376 b.
6. Quronov D. Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – 80 b.
7. Cho'lpon. Oydin kechalarda // Inqilob, 1922. – №. 7-8. – B. 50–52.
8. Elbek. Go'zal yozg'ichlar (Eski o'zbek yozuvida). – Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1925. – 114 b.